

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020- yilning yanvar–sentabrdagi Fargona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 26 695,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 1,4 % ga o`sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Fargona viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
I. YaHM		23 520,1	26 695,9	101,4
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 262,7	25 799,8	101,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 257,4	896,1	101,3
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 262,7	25 799,8	101,4
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7 737,3	8 865,2	104,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 657,7	7 940,7	100,4
	sanoat	5 206,7	6 238,2	100,4
	qurilish	1 451,0	1 702,5	100,4
Xizmatlar		7 867,7	8 993,9	99,8

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da</i>
		<i>2019- yil</i>	<i>2020- yil</i>	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 799,9	2 050,2	99,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 387,6	1 540,4	102,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 680,2	5 403,3	99,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 0,4 %ga kamaydi va 7 067,3 ming so'mni tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,4 %ga kamaydi va 34,4 %ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 24,2 % dan iborat bo`lib, 0,8 %ga ko'paydi, qurilishniki esa 0,1 %ga o'sdi va 6,6 %ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 34,8 %ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,5 %ga kamaydi.




Yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,7	96,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,3	3,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	34,8	34,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)		29,9	30,8
	sanoat	23,4	24,2
	qurilish	6,5	6,6
Xizmatlar		35,3	34,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	7,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	6,0

		2019- yil	2020- yil
--	--	-----------	-----------



	boshqa xizmat tarmoqlari	21,0	20,9
--	--------------------------	------	------



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 104,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,4 %), sanoat tarmog'ida – 100,4 % (24,2 %), qurilishda – 100,4 % (6,6 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida solishtirma narxlarda hajmlarning kamayishi kuzatildi va 99,8 %ni tashkil etdi. Uning tarkibida solishtirma narxlarda hajm o'zgarishlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 99,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 102,5 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida – 99,1 % (20,9 %)dan iborat bo`ldi.




**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari YaHMning mos ravishda 1,3 f.p. va 0,1 f.p. ga o'sishiga hissa qo'shdi. Xizmatlar sohasi mos ravishda - 0,1 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning ko'payishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. ga ko'paydi.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning
hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-sentabrdagi YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,9 % tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 116,9 % va xizmatlarda – 114,5 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

